

41. Massasi 727,4 g bo'lgan suvli eritma tarkibida mis(II) nitrat va kaliy xlorid tuzlari mavjud. Ushbu eritma mis ionlari to'liq tugaguncha elektroliz qilindi. Natijada katodda ajralib chiqqan modda massasi anodda ajralgan gazlar massasidan 15 gramm ko'p bo'ldi. Elektrolizdan so'ng, idishdagi kislotani to'liq neytrallash uchun 440 g x% li kaliy sulfid eritmasi sarflandi. Natijada eritmada 2 mol KNO_3 tuzi hosil bo'ldi.







1. Boshlang'ich eritmadagi tuzlar hamda suvning modda miqdorini(mol) toping.

2. x ni toping.

3. Agar elektroliz 4 soat davom etgan bo'lsa, elektrolizyordan o'tgan tok kuchini (A) hisoblang.

4. Elektrolizda ajralgan xlor gazi qaynoq KOH eritmasiga yutirilganda hosil bo'lgan tuzlarning umumiy massasini toping.

42. Reaksiya tenglamalarini tugallang va tenglashtiring. 1,2,3,5 - reaksiyada hosil bo'lgan organik mahsulotlarni sistematik nomenklatura bo'yicha nomlang. Hosil bo'lgan organik moddalarning tuzilish formulasini yozing.



43. 5 ta raqamlangan probirkada turli eritmalar mavjud. Quyidagi kuzatuvlar asosida ular orasida bir qator reaksiyalar olib borildi:

2-probirkadagi eritmaga 3-probirkadagi eritma ko'p miqdorda qo'shildi. Natijada, qizdirilganda oson parchalanadigan oq cho'kma hosil bo'ldi. Ushbu cho'kma filtrlanib ajratildi. Filtrat bug'latilib qizdirilganda esa metan gazi va kristall holidagi soda hosil bo'ldi. 1-probirkadagi eritma 2-probirkadagi eritmaga qo'shilganda qora cho'kma hosil bo'ldi. 3-probirkadagi eritma 4-probirkadagi eritmada mo'l miqdorda qo'shilganda oq cho'kma hosil bo'ldi, biroq u darhol erib ketdi. 3-probirkadagi kation bilan birinchi probirkadagi kation bitta davrda joylashgan. 1-probirkadagi eritma 4-probirkadagi eritmaga qo'shilganda oq cho'kmalar aralashmasi (cho'kmalarni nitrat kislota bilan ta'sirlashtirilsa, ulardan bittasi erib, bittasi erimaydi) va o'tkir hidli gaz ham ajralib chiqdi. 1-probirkadagi eritma 5-probirkadagi eritmaga qo'shilganda oq va qo'ng'ir tusli cho'kmalar (cho'kmalarni nitrat kislota bilan ta'sirlashtirilsa, ulardan bittasi erib, bittasi erimaydi), shuningdek yana o'tkir hidli gaz hosil bo'ldi. 3-probirkadagi eritma 5-probirkadagi eritmaga qo'shilganda faqat qo'ng'ir rangli cho'kma kuzatildi.

- 1) Barcha reaksiya tenglamalarini yozing.
- 2) Raqamlangan probirkalardagi moddalarning raqami va formulasini yozing.
- 3) Barcha reaksiyalarning to'liq ionli va qisqartirilgan ionli ko'rinishda yozing.
- 4) Probirkalarga kumush nitrat eritmasi qo'shilganda qaysilarida cho'kma hosil bo'ladi. Reaksiya tenglamalarini molekulyar ko'rinishda yozing